

O‘QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Boychayeva Sharifa Saidkulovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim

metodikalari kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada ta‘limiy o‘yinlar va ularni darslarda foydalanish yo‘llari haqida ma‘lumot berilgan, yana o‘yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, soha, interfaol, ta‘limiy, o‘yin, didaktika, mazmun, mantiqiy.

Abstract: This article provides information about educational games and ways to use them in lessons, as well as examples of games.

Keywords: Education, field, interactive, educational, game, didactics, content, logical.

Ta‘lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar, uning mazmunini takomillashtirishga oid qabul qilingan hukumat qarorlari ta‘limni xayot bilan bog‘lashni, o‘qitish samaradorligini oshirishni, tez taraqqiy etib jamiyat uchun har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab etishtirishni talab qiladi. O‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash malakasi haqida gap ketganda nafaqat ularda fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish, balki kuzatuvchanlik, tasavvur qilish, bilim olish yo‘llarini egallash va ilm o‘rganishga qiziqishtirish kabi jihatlarni nazarda tutadi.

Hozirgi kun ta‘limning asosiy maqsadlaridan biri-bu dars jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo‘llarini o‘rgatish va o‘qitishdir.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish jadallashtiruvchi va faollashtiruvchi faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini tarkib toptiradi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga o‘rgatish o‘qituvchining asosiy vazifasiga aylangan. Shu maqsadda darslarda turli **interfaol metodlar**, xususan **ta‘limiy o‘yinlardan** foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin – bu bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali o‘quvchi o‘rganadi, fikrlaydi, muloqot qiladi va rivojlanadi.

Ta‘limiy o‘yinlardan foydalanishning asosiy maqsadi:

-  O‘quvchilarda darsga qiziqish uyg‘otish;
-  Bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish;

- ✚ O‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat va hamkorlikni shakllantirish;
- ✚ Muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Mashg‘ulot jarayoniga didaktik o‘yinlarni tatbiq etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish.

Ta’limiy o‘yinlardan, avvalo, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol- javoblardan darsning ma’lum qismida foydalanish lozim. Shu tarzda testlar, boshqatirma, tez aytish kabi o‘yinlar muntazam o‘tkazib turilsa, o‘quvchilarda ma’lum bir ko‘nikmalar to‘planib boradi. Bu esa o‘quvchilarda ma’lum bir tayyorgarlikni, mustaqil o‘qishni, ommaviy axborot vositalarini kuzatib borishni talab etadi. Shunga ko‘ra o‘quvchilar egallashi shart bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: qayta (ko‘rsatma) olish, aniqlash (o‘lchay) olish, tasvirlay olish, tushuntira olish va bashorat qila olish kabilarni hosil qiladi.

Didaktik o‘yinlar mazmunan axloqiy, aqliy rivojlantiruvchi, ta’lim- tarbiyaviy sifatlarga ega bo‘lish shart.

Dars jarayonida o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ularning tuzilishi, vazifalari, qoidalari, harakatlari, natijalarini tahlil qilish bosqichlarini aniq belgilab olish lozim.

Ona tili darsida o‘quvchilarni so‘z bo‘yigini oshirishda va mantiqiy tafakkurini kengaytirishda quyidagi oyin turlaridan foydalanishimiz mumkin.

“KIM TEZ TOPADI?”

O‘quvchilar guruhlariga ajratiladi.

O‘yinning sharti: Shunday so‘zlar topingki, ularning bosh harflari olib tashlansa ham, ma’lum ma’no bildirsin.

Birinchi guruh	Ikkinchi guruh	Uchinchi guruh
Ot bilan otga	Fe’l bilan fe’lga	Aralash so‘z turkumi
Qasr – asr	Sog‘moq – og‘moq	Sariq – ariq
Choy – oy	Sotmoq – otmoq	Bola-ola
Toy-oy	Yurmoq -urmoq	Sen-en
Buzoq-uzoq	Toshmoq-oshmoq	Odam-dam
Buyum-uyum	Yetmoq-etmoq	Barcha-archa
Barcha-archa	Turmoq-urmoq	Tana-ana
Darcha-archa	Burmoq-urmoq	Ko‘r-o‘r
Qiz-iz	Qilmoq-ilmoq	Bor-or
Qasr-asr	To‘ymoq-o‘ymoq	Sifat-iffat
Sel-el	Qo‘ymoq-o‘ymoq	Ko‘r-o‘r
Bel-el	Tuzmoq-uzmoq	Bor-or
Yel-el	Boqmoq-oqmoq	Uyum-yum
Mel-el	Shoshmoq-oshmoq	Tog‘-og‘
Bet-et	Tolmoq-olmoq	Somon-omon
Qalam-alam	Surmoq-urmoq	Qon-on
Loy-oy	Suzmoq-uzmoq	Xos-os

Qosh-osh	Chekmoq-ekmoq	Kel-el
Buloq-uloq	Solmoq-olmoq	Kuz-uz
Tosh-osh	Buzmoq-uzmoq	Buzoq-uzoq
Bodam-odam	Yotmoq-otmoq	Payt-ayt

Yoki,

1. Mavzudan ot, sifat va va fe'l so'z turkumiga oid so'zlarni topib jadvalni to'ldiring.

Ot	Sifat	Fe'l
Madina	Qiziquvchan	Davolaydi
Maftuna	Hush kayfiyat	Tozalaydi
Konfet	Iflos	Uzilmasdi
Qog'oz	Mazali	O'ynashdi
Qariya	Katta	Tashladi
Sartarosh	Chiroyli	Chayqadi
Shifokor	Xursand	Qadrlaydi

Xulosa qilib aytganda, ta'lim mazmunining o'zgarishi, ta'limda pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, zamonaviy o'qitish metodlari talablarining o'zgarishlari dolzarb masala bo'lib har bir o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. Davr talabi darajasida dars o'tish bevosita pedagogik texnologiya, ona tili va adabiyot o'qitishning nazariy va metodik asoslari bilan bog'liq.

Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning fikrlash, muloqot, ijodkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi o'yinlarni dars maqsadi va mavzusiga mos tanlab, ularni to'g'ri tashkil etsa, bu o'quvchilarning bilimni mustahkamlaydi, darsni esa unutilmas jarayonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.H. Jo'raev, A. Zushunov “Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma”. Sharq.
2. R.H.Shernazarova. “Tillar va pedagogika , psixologiya ” kafedrasini. Sirdaryo viloyat pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti 2013-yil.
3. Xolmatova Ra'noxon Qambaraliyevna. Ta'lim da didaktik o'yinlar va interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi. Talqin va tadqiqotlar N.4 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7259098>